

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKUL'TETI**

“O'ZBEK TILSHUNOSLIGI” KAFEDRASI

MAVZU : Egalik affikslarining elliptik qurulishi.

Bajardi : K.o`qituvchi Yusupova R

Navoiy -2011 y.

Egalik – qarashlilik semasining elliptik qurulishi.

Tilshunoslikda lingvistik iqtisodning bir necha ko'rinishlari mavjud bo'lib, masalan, affiksallik tejamlilik badiiy nutqda mazmunni aniq va tez tushunishga yordam beradi, shuningdek, poetik matnda qulaylik, ixchamlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Affiksallik tejamlilik affiksallik qabatlanishga zid ravishda ma'lum qo'shimchani stil maqsadi bilan tejash, takroriylikka yo'l qo'ymaslik (bir qo'shimchani takroran qo'llash nutqiy g'alizlikka olib kelishi mumkin), nutqni lakonik bayon etish orqali badiiy axborotni aniq tushunishga imkon beradi. Poetik ifoda so'zlovchining ruhiy holatini ifoda etadi, aslan, har bir so'z, har bir affiks, hattoki har bir tovushning imkoniyati kontekstdagina aniq ifodalanadi.

Affiksallik tejamlilikning egalik kategoriyasida mavjudligi ma'lum, egalik kategoriyasi turkiy tillargagina xos bo'lib, egalik-qarashlilik semasi morfologik, sintaktik, morfologik-sintaktik usullarda ifodalanadi, "o'zbek tili egalik, qarashlilik tushunchasini ixcham ifodalash xususiyati bilan boshqa ko'pgina tillardan farq qiladi"¹. Ko'p o'rinlarda egalik affikslari kishilik olmoshlari bilan ifodalangan qaratuvchini tushurib qoldiradi va sintaktik ellipsis yuzaga keladi: **Mening do'stim – do'stim** kabi.

Egalik kategoriyasi bilan bog'liq elliptik shakllar bilan tanishish maqsadida taniqli o'zbek shoiri A. Oripov she'riyatiga murojaat etdik:

Toqatim toq bo'ldi, deydi endi chol,
Toqat yurakdami? Toqat ko'zdami?

Egalik semasi morfologik (*toqatim*) vosita orqali ifodalanib, qaratuvchi (*mening*)ni tushirgan, sintaktik tejamlilik so'zlashuv va badiiy uslubga yetakchi bo'lib, qaratuvchini konstruksiyadan tushirib qoldirish tegishlilik ma'nosiga ta'sir etmaydi, chunki kishilik olmoshida shaxs va son ma'nosi mavjud, biroq "egalik affiksi ham shaxs-son ma'nosini ifodalaydi. Shu jihatdan kishilik olmoshi bilan egalik affiksi biri ikkinchisini qaytaradi."²

Kishilik olmoshi egalik ko'rsatkichi ifodalayotgan ma'no bilan aynan bo'ladi, ba'zan qaratuvchi va qaralmish orasiga yordamchi komponent qo'shilganda egalik-qarashlilik ottenkasi morfologik-sintaktik vosita orqali shakllanadi, qaratuvchini matn tarkibidan tushurish mumkin bo'lmaydi:

Bir vaqtlar ilhomning o'tli tig'ida
Falakni ko'zlardi mening ham sozim.

Masalan, *mening ham sozim – mening sozim – sozim*, bu o'rinda qarashlilik ma'nosini ta'kidlab ko'rsatish maqsadida *ham* yuklamasi qo'llangan.

¹ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. –T., 1983. 96-b.

² O'zbek tili gramatikasi. I jild. –T., 1975. 183-b.

Ikki bir xil semadan biri tejamkorlik qonuniga binoan tushirilganda, qaralmish negizi asosida qaratuvchi tiklanadi, bunday ixchamlik bo'g'inlar tengligini, asar poetikasini ta'minlaydi:

Yulduzlar misoli kulganda ruhim,

Bo'ronli hislarga to'lganda ruhim,

Ba'zan she'r ustida so'lganda ruhim,

Pahlavon Mahmuddan so'radim madad. (I, 142)

Egalik kategoriyasi morfologik vosita bilan ifodalanganda ham affiksial ko'rsatkichlar belgisiz qo'llanishi mumkin, yana bir karra ixchamlik yuzaga keladi:

1. Ot turkumidagi so'zdan I shaxs birlik egalik qo'shimchasi tushiriladi:

Ortga qaray-qaray qaytdim Xivadan,

Axir u men uchun armon emasmi? (II, 269)

2. -ov affiksli jamlovchi sondan I shaxs ko'plik egalik affiksi tushiriladi:

Hozir *ikkov* kirib borsak, deylik, masalan,

To'larmidi jahannamning cheksiz maskani. (I, 368)

Har ikkala misolda ham fikrning nechanchi shaxsга tegishliligi shaxs-son formasidagi fe'lga nisbatlab aniqlanadi: *ortga qaray-qaray qaytdim-ortimga qaray-qaray qaytdim; ikkov kirib borsak-ikkovimiz kirib borsak* kabi.

Morfologik-sintaktik usulda ifodalangan egalik-qarashlilik semasida qaralmish (egalik obyekti)dan egalik ko'rsatkichi tushiriladi:

- a) I shaxs birlik (-im) egalik shakli:

Sizning qoshingizda mening bu ash'or

Bamisli gulzorga qo'ngan kapalak. (I, 309)

- b) II shaxs ko'plik (-i(ngiz)) egalik affiksi:

Sizning bu yaratgan mo'jiza san'at,

Yuz yil to'zim bilmay turmoqligi rost

...Va lekin aslida sizning gilamga

Bitgulik bayt yozsam baxtli bo'lardim. (I, 309)

Keltirilgan har uchala misol "Baxmallik to'quvchi qizlarga" she'ridan olingan bo'lib, poetik tushunchani ifoda qilish uchun affikslarning yashirin ifodalanishi nutqiy tejam vositasida bir xillikka yo'l qo'ymaslikni ta'minlagan: *mening ash'or – mening ash'orim; sizning san'at – sizning san'atingiz; sizning gilamga – sizning gilamingizga* kabi.

II shaxs ko'plik egalik affiksini belgisiz qo'llash she'riy matn uchun yetakchi bo'lib, misrada ko'pincha ikki bo'g'inni ongli iqtisod qilishga olib keladi:

Sizning buyuk iste'dodga taraf yo'q also,

Shatranjda ham betimsolsiz. (II, 435)

yoki

Sizning chalkash ismlar hech yodimda qolmas. (II, 435)

Sizning iste'dodga – sizning iste'dodingizga yoki sizning ismlar – sizning ismlaringiz kabi.

Shuningdek, I shaxs birlik egalik ko'rsatkichi boshqa morfologik shakllar bilan qo'llanganda ham belgisiz kelish mumkin, tegishlilik ma'nosi nutq situatsiyasidan va tuslangan fe'ldan anglashiladi, chunki “egalik kategoriyasining to'liq tabiatini faqatgina so'z tarkibida emas, shuningdek, so'z birikmasi va gap tarkibida o'rganish natijasidagina aniqlash mumkin”³.

I shaxs birlik egalik formasi otlarda yashirin tarzda o'rin belgisi af-fiksi bilan kelganda, fonetik qisqarish, ya'ni -dagi o'rin qo'shimchasi -da shaklida qo'llangan:

Senga bayon etsam dilda niyatni

Umrinni yashadim kurashchiga xos. (I, 238)

Dilda niyatni birikmasidagi asl shakl *dilimdagi niyatni* tarzida bo'lib, -da affiksini o'rin-payt kelishigi deyish nojoiz, chunki o'rin-payt formasi harakatning bajarilish o'rnini yoki paytini ko'rsatadi, aslan “-dagi affiksi o'rin kelishigi ko'rsatkichi -da va sifat yasovchi -gi affikslarining birikishidan hosil bo'lgan qo'shma affiksidir”⁴, o'rin va belgiga xoslik ma'no qisman saqlangan bo'lsa-da, -dagi affiksli ot doimo otga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi: *Senga bayon etsam dilda niyatni. – Qaysi niyatni? – dilda niyatni* kabi. Bu misrada tejamkorlikning ikki shakli, ya'ni egalik ko'rsatkichi bilan bog'liq affiksali tejamkorlik, o'rin belgisi formasi bilan bog'liq fonetik tejamkorlik mavjud desak yanglish bo'lmaydi.

I shaxs birlik egalik ko'rsatkichi **-mi** so'roq yuklamasi bilan qo'llanganda affiksali tejamkorlikning quyidagi shaklini kuzatish mumkin. Agar bu shakllar uyushgan bo'laklar tarkibida kelsa, uyushgan so'zning birinchisida ikkala shakl ham belgisi, ikkinchisida bu formalar belgisiz keladi. Mazkur holatni A. Oripov “Sohibqiron” she'riy dramasida quyidagicha keltiradi:

OTA

(go'rkov cholga)

Xo'sh, og'ayni, yo'lni endi jannatga boshla!

(o'g'liga ko'zi tushib)

Manovi kim? Tushummi, o'ng? (I. 345)

Bir misrada ikkita so'roq gap mavjud bo'lib, birinchi gapda so'roq olmoshi (*manovi kim?*) bilan, ikkinchi gapda so'roq yuklamasi (*tushummi, o'ng?*) bilan ifodalangan, ham egalik, ham so'roq ottenkasi ixchamlashtirilgan, bu o'rinda lingvistik iqtisod stilistik maqsad uchun, ya'ni so'zlovchining hayratini ifodalash uchun ham xizmat qilgan.

Ma'lumki, qaratuvchi o'zlik olmoshi bilan ifodalanib, qaralmish bilan moslashuvli birikma hosil qilganda, egalik affiksi qaratuvchiga ham, qaralmishga ham qo'shiladi:

Birlik

Ko'plik

I. o'zimning uyim

o'zimizning uyimiz

³ Abdurahmonova M. Turkiy tillarda egalik kategoriyasi. - O'zbek tili va adabiyoti. -2001.-№ 3. 51-54-b.

⁴ Hojiyev A. O'zbek tilida forma yasalishi. -T., 1979. 54-bet.

II. o'zingning uying o'zingizning uyingiz

III. o'zining uyi o'zlarining uylari

Biroq konstruksiyada *o'z* qaratuvchisi deyarli egalik va kelishik affiksisiz qo'llanib, egalik, tegishlilik semasini ixchamlashtiradi:

Men bilaman, Aloviddin, o'z qudratimni,

Raqibimni dovdiratar bu usulim ham. (II. 424)

-gan affiksli sifatdoshga o'rin payt kelishigidan avval egalik ko'rsatkichi qo'shilganda, asosning tiklanuvchi leksemasi kishilik olmoshi bo'ladi va ega vazifasini bajaradi: *ko'rganimda* – *men ko'rganimda*; *ko'rganingda* – *sen ko'rganingda* kabi, sifatdosh esa hol vazifasida bo'ladi. Biroq she'r matnidan kishilik olmoshi tushurilsa, uyushgan tobe bo'lak (-da affiksli sifatdosh)dagi egalik affiksi ham belgisiz kelsa, predikativ munosabatning kesimiga qarab egalik – qarashlilik ma'nosi aniqlanadi:

Madorsiz qo'limga qalam olganda

Yo uzoq yo'llarda horib-tolganda,

Bir nomard qoshida ojiz qolganda

Pahlavon Mahmuddan so'radim. (I. 142)

Bu o'rinda *qalam olganda* – *qalam olganimda*, *horib – tolganda* – *horib – tolganimda*, *ojiz qolganda* – *ojiz qolganimda* shaklida payt holi funksiyasini bajaradi.

Badiiy axborot yetkazishda affiksali tejamlilik qulaylik tug'diradi, qo'shimchani iqtisod qilish orqali ma'noviy, shakliy takroriylikka yo'l qo'yilmaydi, biroq "ba'zan til birliklarini o'ta tejash, ya'ni qisqalikka intilish matnni mavhumlashtiradi yoki uni ikki xil tushunishga olib keladi"⁵, chunki nutqiy tejamlilikda ham me'yor ahamiyatlidir, "insonning amaliy faoliyatiga taalluqli bo'lgan oz mehnat sarflash bilan ko'proq natijaga erishish"⁶ nazarda tutilar ekan, elliptik shakllarni norma darajasida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

⁵Mahkamov N. Qonun ijodkorligida lisoniy ortiqchalik va tejamlilik. – O'zbek tili va adabiyoti, 2003.-№ 6. 77-79-b.

⁶Tojiyev O. Affiksali tejamlilik va ortiqchalik dialektikasi. – O'zbek tili va adabiyoti . 2001.-№3. 77-79-b.